

**ZARDUSHTIY VA BUDDAVIYLAR DAVRI OMMAVIY MUSIQA VA
BADIY SAN'AT TARIXI VA TURLARI****Yangulov Timur Eldor o'g'li***GulDU, "Musiq ta'limi" kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada Zardushtiylar davrining hayot tarsi, musiqa cholg'ulari va ijrochilik san'ati haqida tarixiy ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalitli so'zlar: *deklamatsiyachilar [kavvalon], qo'shiq [Surud] "jodugarning yig'isi" [Giristani mug'on], Afrosiyob, Siyovush, Kayxusrav, Darboriy, Doro.*

Аннотация: *В статье представлены исторические сведения о зороастрийском быте, музыкальных инструментах и исполнительском искусстве.*

Ключевые слова: *декламаторы [кавалон], песня [суруд] «ведьмин крик» [гиристани мугон], Афросиаб, Сиявуш, Кайхусрав, Дарбари, Доро.*

Annotation: *The article provides historical information about the Zoroastrian way of life, musical instruments and performing arts.*

Key words: *declamators [kavvalon], song [Surud] "witch's cry" [Giristani mugon], Afrosiab, Siyavush, Kayxusrav, Darbari, Doro.*

O'zbekiston va Tojikistonning o'tmishida Zardushtiy va Buddha ibodatxonalarida qalam tasvir, rang tasir, mozayka, haykaltaroshlik, kandakorlik va uymakorlik va ayniqsa musiqiy san'at turlari, o'zlik timsolining muhim siyosiy, madaniy-ma'rifiy va diniy g'oyalar targ'ibotchisi vazifasini bajargan. Bu haqdagi ilk ma'lumotlar Abu Bakr Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida: «Afrosiyob o'z kuyovi Siyovushni o'ldirdi. Siyovushning esa Kayxusrav ismli o'g'li bor edi. Buxoro aholisi Kayxusravning otasi Siyovush o'limi munosabati bilan ajoyib qo'shiq yaratdi. Mashshoqlar bu qo'shiqni "Kini Siyovush" [Siyovush qasosi] deb, ataganliklari haqida ma'lumotlar beriladi. Bunda: qizil - (qon semantikasi, ya'ni qasos ma'nosida) va qora - (g'am va qayg'uli xotiralarni eslatuvchi ramz asnosida) ranglarda tasvirlar yaratilib, qo'shiq matniga bog'lab hamma jo'r bo'lib aytgan: deklamatsiyachilar [kavvalon] bu qo'shiqlarni [Surud] "jodugarning yig'isi" [Giristani mug'on], deb ataydilar. Ana shu voqeadan buyon 3000 yildan ko'p vaqt o'tdi". Buxoroning barcha viloyatlarida mashhur bo'lgan Siyovushning o'ldirilishi haqidagi qo'shiq, Tojikiston davlat xalq konservatoriyasining kasbiy xor jamoasida hozir ham mavjud ekanligini san'atshunos olim S.B.Saidiy izoxlab o'tgan. Qadimgi Xorazm zaminida yaratilgan "Avesto" muqaddas kitobida, ayniqsa, uning "Xatlar" [Gatho] qismida musiqiy ijrochilik va uning uslublari, tasvir va rangtasvir sirlari haqida ko'plab ma'lumotlar bayon etilgan. Zardushtiylik ta'limoti ham o'z davrida qadimiy an'analarni tiklab, ularni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etganki, ushbu madaniy qatlamga mansub Darbori va Dabiriston maktablarining vujudga kelishi jiddiy o'zgarishlar davri hisoblanadi. Xususan, Boxtar [Baqtriya]da ham ancha taraqqiy etadi, keyinchalik Midiya va Ahmoniyalar [Xoxomanish] imperiyasi Eron hududiga ham tarqaladi. Bu davrda musiqa san'ati professional maktab darajasiga ko'tariladi. Asosiy maktablar — Darboriy, Dabiriston

an'analarida shakllanib, diniy musiqa asosan Xarbadiston uslubidan iborat edi . Shuni ta'kidlab o'tish joizki, S.Saidiy Darboriy va Doro musiqiy yo'nalishi haqida ma'lumot berish bilan chegaralanib, o'sha davrdagi tasviriy, me'morchilik, haykaltaroshlik, chekanka, mozayka, kandakorlik va uymakorlik, naqsh islimilarni turlari: "Islimi", "Devoni", "Zanjiri", "Gulobi", "Yoquti", "Panjobi" - (bugungi kunda 7 turdagi ranglardan iborat adras va atlaslar), "Koxini", "Ma'budi", keyinchalik; "Janna-ul zardbofiy yoxud Oftobiy"- (jannatdagi sariq gullar), "Kulobi" va boshqalar VI- asrdan so'ng yangilanib borgan. Musiqa san'ati turlari bo'yicha 5- yo'nalishdan iborat bo'limlarni nazariy va amaliy-uslubiy asoslarini ro'yobga chiqarib, ko'riklar o'tkazilganligi va g'olib chiqqanlar esa saroy yuqori tanlov ko'rigida qatnashish uchun ruxsat berilgan. G'oliblar saroy xizmatida bo'lishgan, deb izoh bergan. Yana, " I.Orbeli va K.Trever ma'lumotlariga ko'ra, Siyovushning qal'adan chiqishidagi ikki tomonlama 3 va 4 taqsimga bo'lingan karnaysimon [Gongsimon] cholg'ular ishtirok etilganligi Xorazmda topilgan misdan yasalgan la'li [patnis] tasvirida o'z ifodasini topgan. O'sha davrdagi ijro qoida-tartibi qanday bo'lganligi bizga ma'lum emas, albatta. Xuddi shu tusda 14 ta boshqa cholg'ular ham o'sha davrning mohir tasvirchi va uymakor ustasi tomonidan tasvirlangan. Ular orasida nog'ora, doyrasimon, tablaksimon urma cholg'ular hamda puflama dunay va surnaysimon cholg'ular ham mavjud. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, tablaklarning bir turi bir tomoniga, ikkinchi turining esa ikki tomoniga teri qoplangan bo'lib, hozirgi zamon tablak cholg'usiga o'xshash turi Siyovushdan bir necha asr keyin, zardushtiyalar davrida shakllangan deyish mumkin.

Zardushtiy musiqa an'analari rivojlanishida Siyovushning o'limi tufayli Buxoro aholisi o'rtasida tarqalgan diniy - mistik qo'shiqlar muhim o'rin egallagan", -deyilgan. Tan shoiri Li-Duaniya o'z she'rida "Raqqos Xute'uning «Toshkent raqsi»da ular rangli kiyimlar kiyishi haqida ma'lumot bergan. Bu raqslar Koreya amaliyotida har xil rangga bo'yalgan, muayyan bir shakldagi nog'ora namunalari kuzatiladi va ulardan ayrim o'ta dabdabali tantanalarda foydalanishgan. Masalan, Qora doul Yomg'ir ma'budasiga itoatga chorlab ijro etilgan. Sariq rangga bo'yalgan douldan qatl etishda foydalanishgan. Qizil rangga bo'yalgan douldan esa o'ynoqi raqslar usullari chalingan . O'rta asr tarixchilari qalamiga mansub asarlarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Sosoniylar davrida Xisrav II Parviz saroyida "Samoi-Navro'z", "Sozi-Navro'z", "Musiqai- 10 Navro'z", "Nozi-Navro'z", "Navro'zi-Xoro" bazmlari o'tkazilib, bu o'zbek va tojik xalqlarining eng sevimli musiqiy-madaniy an'alaridan biri sifatida e'tiborli bo'lgan. Navro'z marosimiy ijro uslublari ham bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan bo'lib, qozoqlarda "Nauro'z", qirg'izlarda "Nooruz" deb nomlangan. Xullas; kelajagimiz yosh avlod tarbiyasini mustaxkamlash va ularni har tomonlama o'z kasbiga sodiq va izchil yondashuvlariga e'tiborimizni kuchaytirib, bunda: tarix, madaniyat va ma'rifat, ota-bobolarimiz ko'zdan kechirgan yo'llari va ularning bizga me'ros qilib qoldirgan san'at turlarini asrab-avaylash, qadriyatlarda tom ma'nodagi sarchashmalarga mehr-muhabbat ila qarash, dunyoqarashlarini mustaxkamlash asnosida bilvosita, e'tiborli bo'lishlarida, biz o'qituvchilarda mas'uliyatimizning be'qiyos ekanligini bildirmoqchimiz.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1.S.B.Saidiy “Markaziy Osiyo madaniyatida urma zarbli cholg‘ular” (o‘zbek va tojik xalqlari musiqa an‘analari misolida),T/ “Musiqa”nashriyoti. 2005 yil.

2.S.Saidiy “zardushtiy va buddaviylar davri musiqa madaniyati” /Toshkent.J:
“Moziydan Sado”- 2005 yil 27-29 betlar.